



FONETIK-FONEMATIK NUTQ BO`ZILISHGA EGA BO`LGAN BOLALARNI O`QITISH VA TARBIYALASH

JDPU maxsus pedagogika kafedrası
o`qituvchisi Aralova Iroda meliqo`zi qizi

JDPU Pedagogika –psixologiya fakulteti
Maxsus pedagogika (logopediy)yo`nalishi 2-
bosqich magestri Bozorboyev Javlon

ANNOTAYSIYA: Nutqning fonetik-fonem atik tom ondan rivojlanm aganligi—bu tovushlarni talaffuz etish va idrok qilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilishidir. Fonematik idrok sensor funksiya sifatida juda erta shakllanadi.

АННОТАЦИЯ: Это фонетико-фонематическое развитие речи у детей в результате дефектов процесса произношения и восприятия звуков нарушение формирования системы звукопроизношения родного языка. Фонематическое восприятие формируется очень рано как сенсорная функция.

ANNOTATION: This is the phonetic-phonemic development of speech in children as a result of defects in the process of pronunciation and perception of sounds is a violation of the formation of the system of pronunciation of sounds in the native language. Phonemic perception is formed very early as a sensory function.

Nutq kamchiligi bo`lgan bolalar – nutq sensor organlarning orttirilgan yoki tug`ma organik jarohatlanishi natijasida funksiyalarning buzilishi kiradi.

Nutq murakkab dialektik jarayondir. Nutq jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga-haqiqatni nutqning,obektiv reallikni nutqning dialektik yo`lidir. Inson va atrof muhit doimiy ravishda aloqada bo`lib, u ko`rish, eshitish, teri, ta`m, hid nutq, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi. Eshitish analizatori insonning barcha a`zolari ichida eng ahamiyat-lilaridan sanalib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok qilishdan iboratdir. To`laqonli eshitish nutq shakllanishining omili sanaladi. Nutq orqali esa insonning so`z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo`ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bular so`z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo`ladi. Inson o`zi ko`rgan va ta`sirlangan buyum va hodisalarni so`z yordamida nomlab, mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko`rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo`ladi. Har qanday buyum, hodisaning



miyada aks etishi va ongda mustahkam oʻrnatib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, u tafakkur quroli, muloqot jarayonida fikrni ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va taʼsir koʻrsatish quroli boʻlib ham xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutqiy rivojlanish zamirida paydo boʻlishi sababli u inson tafakkurining rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Nutq buzilishi oqibatida insonning nutqni egallay olmasligi, shu bois jamiyat aʼzolaridan yakkalanib qolishi uning ijtimoiy hayotda oʻz oʻrnini topishida qator muammolarni yuzaga keltiradi.

Nutq kamchiligini rivojlanishni toʻgʻri tarbiyalash oʻyin, mehnat va kundalik faoliyatda hamda rasm mashgʻulotlarida amalga oshirib boriladi. Bolalar predmetlarni qoʻllari bilan ushlab koʻradilar va koʻrgazmali qurollarda foydalanib rasm chizadilaf. Bu ish faoliyatlariga rasm chizishning barcha turlari kiradi. Har bir oddiy predmetni chizishdan oldin, bolalarda diqqatni, koʻrish, nutq va harakat protsesslarini rivojlantirish uchun tayyorlov etapi olib boriladi. Asosiy vazifa harakatning nutq bilan birga olib borishiga qaratiladi. Korreksion maqsadda turli xil didaktik oyinchoqlar (piramidalar, matreshka, sharlar), qurilish konstruktorlar, didaktik oyinlardan (rangiga qarab tanla, rasmga qarab nomini top, “Geometrik loto”) foydalaniladi. Bunday nutq kamchiligida nutqning idrok va talaffuz qilish nuqsonlariga asoslangan fonetik-fonematik tomonining buzilishi birinchi oʻrinda turadi. Shu bilan birga baʼzi bolalarda leksika-grammatik taraqqiyotida yaqqol ifodalanmagan orqada qolish hollari ham kuzatilishi mumkin. Bu toifadagi bolalarga xos xususiyat artikulatsion yoki akustik belgilariga koʻra farq qiladigan tovushlarning shakllanish jarayonining

tugallanmagan boʻlishidir. Bu holda bola nutqida differentsiatsiyalanmagan tovushlar boʻlishi tovushlarni almashtirish, nutqda ularni qoʻllamaslik, koʻplab tovushlarni buzib talaffuz qilish, shuningdek tovushlarni eshitishga koʻra yetarli farqlamaslik kuzatiladi.

Nutqni idrok qilishni tekshirish jarayonida olimlar (V. Ananov, 1955,1960;V.I.Beltyukov, 1958; A.N Gvozdev, 1961) bolalarda birinchi fonematik eshituv nutq normal rivojlangan holda juda erta yuzaga kelar ekan degan xulosaga keldilar.Mualliflarning taʼkidlashicha, bolaning eshitish analizatori funksiyasi erta rivojlanishining boshidayoq akustik jihatdan



qarama-qarshi bo'lgan tovushlarni ajrata biladi, rivojlangan fonematik eshituv bolaga faqat to'liq nutqni egallashga yordam beribgina qolmay ona-tilida bemalol muloqot qila olish malakalarini ham shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqida kamchilik bo'lishi ularda mayda matorikalarning yaxshi rivojlanmaganligi yoki nutq apparatida buzilizlar bo'lishi sabab bo'lishi mumkin. Maktabgacha tarbiya muassasalarida nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash bolalar bog'chasi tarbiya dasturiga muvofiq tashkil qilinadi Fonetik-fonematik nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar ommaviy turdagi maktabgacha tarbiya muassasalarining maktabga tayyorlov guruhlariga mo'ljallangan bilim, ko'nikma va malakalar hajmini o'zlashtirishlari kerak. Fonetik-fonematik jihatdan nutq rivojlanmagan bolalar guruhlariga olib kelingan bolalar 10 oy ichida umumta'lim maktabida muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy topshiriqlar, ko'nikma va malakalar hajmini o'zlashtirib olishlari lozim. Nutq faoliyatining ayrim tomonlarini rivojlantirishga qo'yiladigan talablarni aniqlash maqsadida quyidagi maxsus ishlar amalga oshiriladi:

- talaffuz malakalarini shakllantirish;
- fonematik idrokni rivojlantirish;
- tovush analiz va sintezi ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tuzatuvchi ta'limning maqsadi: bolalarda umumiy va nutq kamchiliklarini tuzatish hamda bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus logopedik metod va usullarni qo'llash yo'li bilan bolaning yoshiga muvofiq lug'at boyligi va mustaqil nutq bilan birga to'g'ri, aniq, ravon nutqni tarbiyalash. Tuzatilgan nutqiy material ustida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- bolalarda so'zning morfologik tarkibiga va so'zlarning o'zgarishga e'tiborni jalb etish hamda so'zlarning gapda bog'lanishini rivojlantirish;
- bolalarda oddiy yoyiq va qo'shma gaplarni to'g'ri tuzish, mustaqil nutqda turli konstruksiyadagi gaplarni qo'llash ko'nikmalarini tarbiyalash;
- mustaqil nutqni rivojlantirish:

— lugʻatini boyitish:

Fonetik-fonematik nutq rivojlanmaganligini bartaraf etishda olib boriladigan korreksion ishning birinchi davrini tayyorlov davri deb ham nomlash mumkin. Bu davrda olib boriladigan ishlar quyidagilarni oʻz ichiga oladi: artikulatsion apparat harakatchanligini rivojlantirish; toʻgʻri talaffuz qilinadigan tovushlarni aniqlash; tovushlarni nutqqa qoʻyish; eshituv idrokini rivojlantirish, tovushlar differentsiatsiyasi ustida ishlash soʻz va boʻgʻin ichidan tovushni ajratish.

Korreksion taim ning II davrida tovushlarni nutqqa qoʻyish davom ettiriladi, nutqqa qoʻyilgan tovushlarni nutqda mustahkamlash; eshitish idrokini rivojlantirish; tovush analizi va sintezini shakllantirish: a) soʻzda tovush oʻrnini topish (soʻz boshida, oʻrtasida, oxirida); b) soʻzlarda tovushlar soni va ketma— ketligini aniqlash; nutqning leksik grammatik tomonini boyitish va rivojlantirish boʻyicha logopedik ish olib boriladi.

Quyida biz fonetik-fonematik nutq rivojlanmaganligini bartaraf etish boʻyicha M. Ayupova (1992) tomonidan tavsiya etilgan logopedik ish tizimi bilan tanishamiz. Fonetik-fonematik nutq rivojlanmaganligini bartaraf etish boʻyicha olib boriladigan korreksion ish tizimi shartli ravishda 3 davrga boʻlinadi. Ularning har birining mazmuni va hajmi jihatidan farq qilgan holda bir-biriga bogʻliq hamdir. Korreksion logopedik ishning oldingi davri keyingi davrdagi ish mazmunini oʻzlashtirib olishga bolalarni tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aralova I.M Maktabgacha Taʼlim Ypshidagi Bolalarni Nutq Nuqsonlarin Korreksiyalashda Tasviriy Faoliyatdan Foydalanish Metodlari. „Xalq Taʼlimi“ Oʻzbekiston Respublikasi Xalq Taʼlimi Vazirligining Ilmiy-Metodik Jurnalni 2021
2. Aralova I.M “Maktabgacha Taʼlim Tashkilotida Tasviriy Faoliyatning MashgʻUlot Turlari Va Mazmuni”. «Муғаллим Хэм Үзликсиз Билимлендириў» № 6/5
Некис — 2022
3. Akramova X, Aralova I. Maktabgacha taʼlim ypshidagi bolalarni nutq nuqsonlarini korreksiyalashda tasviriy faoliyatdan foydalanish metodlari. „Xalq taʼlimi“ Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi vazirligining Ilmiy-metodik jurnalni 2021



4. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. "Nasaf"2000 y.-80 b.
5. Talipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari: O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari biologiya o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2002.
6. U. Tolipov, M.Usmanbayeva. pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. "Fan". 2005.

